KITOB O‘QISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KUTUBXONACHINING TUTGAN O‘RNI

Sheraliyev Raxmatjon Eralievich – *direktor*
Farg‘ona viloyati, Uchko‘prik tumani Axborot-kutubxona markazi

В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ КНИГ РОЛЬ БИБЛИОТЕКАРЯ

Шералиева Рахматжона Эралиевича – *директор*
Информационно-библиотечный центр Учкуприкского района Ферганской области

IN DEVELOPING READING CULTURE THE ROLE OF A LIBRARIAN

Sheraliev Rakhmatjon Eralievich – *director*
Information and Library Center of Uchkuprik District, Fergana Region

Tayanch so‘zlar: kitobxonlik mutola madaniyati, kutubxona, kutubxonachi, kitobxon, manaviyat, axborot-resurs, yoshlar, elektron resurslar.

Rezyume. Ushbu maqolada kitob o'qish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda kutubxonachi faoliyatini ahamiyati yoritiladi. Kitobxonlarni mutalaaga jalb qilish,ularning qiziqishi va ehtiyojlarini o‘rganish, yoshlar bilan individual hamda ommaviy ishlarni tashkil etish masalalari taxlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali kututbxona hizmatlarini takomillashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Ключевые слова: культура чтения, библиотека, библиотекарь, читатель, духовность, информационные ресурсы, молодежь, электронные ресурсы.

Резюме. В данной статье освещается значение деятельности библиотекаря в формировании и развитии культуры чтения книг. Проанализированы вопросы привлечения читателей к чтению, изучения их интересов и потребностей, организации индивидуальной и массовой работы с молодежью. Также будут рассмотрены возможности совершенствования библиотечных услуг за счет использования современных информационных технологий.

Keywords: reading culture, library, librarian, reader, spirituality, information resource, youth, electronic resources.

Summary. This article highlights the importance of librarian activity in shaping and developing a reading culture. Issues of attracting readers to reading, studying their interests and needs, and organizing individual and mass work with youth will be analyzed. Opportunities for improving library services through the use of modern information technologies will also be considered.

Kirish

Kitob insonning manaviy va intellektual kamolotida muhim o‘rin tutadi. Muntazam kitob o‘qish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda bilim va ma’naviy ehtiyojlarini yuksaltiradi. Shu sababli jamiyatda kitob o‘qish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda kutubxonalarning o‘rni beqiyos. Kutubxona bugungi kunda nafaqat kitob saqlanadigan muassasa, balki bilim, ma’rifat, axborot va madaniy muloqot markazi sifatida faoliyat yuritmoqda. Kutubxonachi esa kitob bilan kitobxon o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi mutaxassisi hisoblanadi.

Kutubxonachining kitobxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni

Kitob o‘qish madaniyatini rivojlantirish, avvalo, kitobxonning qiziqishi va ehtiyojini to‘g‘ri aniqlashdan boshlanadi. Kutubxonachi kitobxonning yoshi, kasbi, bilim darajasi va qiziqishlarini inobatga olgan holda unga mos adabiyotlarni tavsiya qilish zarur.

Ayniqsa, yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish kutubxonachining kasbiy maxorati muhim ahamiyatga ega. Kitob taqdimotlari, adabiy-badiiy kechalar, kitobxonlik tanlovlar, davra suhbatlari, yangi adabiyotlar ko‘rgazmalari va asarlar muhokamasini tashkil etish kitobga qiziqishni oshiradi.

Kutubxonachi kitobxonga faqat kitob tavsiya qiluvchi xodim emas,balki uning axborot va manaviy extiyojlarini qo‘llab-quvvatlovchi maslahatchi hamdir. Shuning uchun zamonaviy kutubxonachi adabiyotlarni yaxshi bilish,kitobxon bilan samarali muloqot qila olishi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Bugungi raqamli muhit kutubxona faoliyatiga yangi imkoniyatlarni olib kirmokda.

Elektron kataloglar, raqamli axborot resurslari va onlayn xizmatlaridan foydalanish kitobxonga kerakli malumotni tez va qulay topish imkonini beradi.Shu bilan birga raqamli texnologiyalar ananaviy kitob mutalaasini almashtirmasdan, uni qullab-quvvatlashi muhim.

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda oila,talim muassaslari va kutubxonaning hamkorligi ham katta ahamiyatga ega. Kutubxonachi ota-onalar, o‘qituvchilar va yoshlar bilan hamkorlikda mutolaa muhitini shakllantirishi, kitob o‘qishni kundalik extiyojga aylantirishga ko‘maklashishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kitob o‘qish madaniyatini rivojlantirishda kutubxonachining o‘rni juda muhim. Kutubxonachining bilimdonligi, kitobxon bilan muloqot madaniyati, adabiyotlarni yaxshi bilishi va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana olishi kitobxonlik muhitining samaradorligini belgilaydi.

Shu bois kutubxonachi faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, kitobxonlarning qiziqishlarini muntazam o‘rganish, yoshlar uchun qizikarli kitobxonlik tadbirlarini ko‘paytirish va raqamli resurslardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish orqali bilimli, mustaqil fikrlaydigan va ma’naviy etuk avlodni tarbiyalashga munosib hissa ko‘shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida» 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o‘qishga qiziqishini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2026 yil 15 yanvardagi PQ-9-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar orasida kitobxonlik dasturini keng joriy etish va ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» 2026 yil 22 maydagi F-33-son farmoyishi.

4. Kutubxonashunoslik va bibliografiyaga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar.

5 . ”San’at va madaniyat Axborotnomasi” ilmiy jurnali materallari.